

# MATBUOT\_ANJUMANI



## MATBUOT\_ANJUMANI

Termiz shahar hokimining birinchi o'rinbosari G'ayrat Elamanov ishtirokida "Shaharda aholi bandligini ta'minlash orqali kambag'allikni qisqartirish borasidagi ishlar" mavzusida matbuot anjumani o'tkazildi

Matbuot anjumanida OAV va ijtimoiy tarmoq faollari ishtirok etib, o'zlarini qiziqtirgan savollarga batafsil javob olishdi.

Termiz shahar hokimining birinchi o'rinbosari G'ayrat Elamanovning "Shaharda aholi bandligini ta'minlash orqali kambag'allikni qisqartirish borasidagi ishlar to'g'risidagi axboroti.

"Mahallada tadbirkorlikni rivojlantirish, aholi bandligini ta'minlash va kambag'allikni qisqartirish bo'yicha davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlari to'g'risida"gi 2021 yil 3 dekabrda PF-29-son Farmoniga muvofiq, mahallada tadbirkorlikni rivojlantirish, aholi bandligini ta'minlash va kambag'allikni qisqartirish masalalari bo'yicha tuman (shahar) hokimlarining yordamchilari faoliyatini samarali tashkil etish maqsadida,

2021 yil 3 dekabrda "Mahallada tadbirkorlikni rivojlantirish, aholi bandligini ta'minlash va kambag'allikni qisqartirish masalalari bo'yicha hokim yordamchilari faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-31-sonli qarorning ijrosini bajarish yuzasidan hokim yordamchilari tomonidan amalga oshirilayotgan ishlar va kelgusidagi vazifalar to'g'risida axborot.

Jumladan, Mahallalarning ixtisoslashuvi va "o'sish nuqtalari bo'yicha ajratiladigan kredit mablag'larining taqsimoti bo'yicha, Ajratiladigan kreditlar Termiz shahrida jami 70 800 mln so'm bo'lib shundan, Issiqxona - sabzavotchilik yo'nalishi bo'yicha 5 032 mln so'm, Parrandachilik yo'nalishi bo'yicha 10 086 mln so'm, Xizmat ko'rsatish va savdo yo'nalishiga 18 000 mln so'm va boshqalar yo'nalishlarga 37 682 mln so'm ajratilishi belgilab olingan.

Ajratilgan kreditlar bo'yicha bugungi kunga qadar xokim yordamchilari tavsiyasiga asosan jami 77 ta fuqaroga 2 249 mln so'm kredit ajratilgan.

Shundan: "Har bir oila-tadbirkor" dasturi asosida 76 nafar fuqarolarga 2 mlrd 186 mln so'm va Hunarmandchilikni rivojlantirishga 2 ta fuqaroga 63 mln so'm kredit ajratilgan. Aholini tadbirkorlik faoliyatini yo'lga qo'yish, o'zini-o'zi band qilish va ish bilan ta'minlash bo'yicha 2022-yil uchun ajratiladigan subsidiyalarning hududlar kesimida maqsadli parametrlari bo'yicha, Termiz shahrida, jami ajratiladigan subsidiyalar mablag'i 13 632 mln so'm ajratilishi belgilab olingan.

Jumladan:

1. Aholi o'zini-o'zi band qilish, shuningdek, tadbirkorlik faoliyatini yo'lga qo'yishi uchun ajratiladigan mablag'lar 7 767 mln so'm bo'lib Shundan:

a) Bandlikka ko'maklashish davlat jamg'armasi mablag'lari hisobidan 6 204 mln so'm. b) Jamoat ishlari jamg'armasi mablag'lari hisobidan 1 562 mln so'm.

2. Fermer, dehqon xo'jaliklari va tomorqa yer egalari Kengashi mablag'lari hisobidan 332 mln so'm.

3. Mahalla infratuzulmasini yaxshilash uchun hokim yordamchilariga ajratiladigan mablag'lar 1 612 mln so'm.

4. "Saxovat va ko'mak" jamg'armasi ("Temir daftar") 1 393 mln so'm.

5. "Ayollar daftari" jamg'armasi 1 262 mln so'm.

6. "Yoshlar daftari" jamg'armasi 1 264 mln so'm.

Shuningdek "onlayn-mahalla" platformasiga barcha hokim yordamchilari to'g'risidagi ma'lumotlar kiritildi hamda xatlov natijalari bo'yicha ma'lumotlar xonadonbay kiritish ishlari amalga oshirilmoqda.

O'rganish natijasida Temir daftar, Ayollar va yoshlar daftariidagi hamda ish bilan band bo'lmagan aholining qolaversa mahallada kambag'allikni kamaytirish yuzasidan aniq yo'l xaritalari ishlab chiqildi.

Hokim yordamchilari tomonidan amalga oshirilgan ishlar

"Hokim yordamchi"lari tomonidan bugungi kunga qadar 35.6 ming (89.0%)dan ortiq xonadonlar xatlov qilindi.

Xatlovda mazkur xonadonlarning:

- 12763 tasi (36,4 %) "Namunali"; 4-toifa (iqtisodiy ahvoli yaxshi va o'ziga to'q xonadonlar
- 11 449 tasi (32,8%) "O'rta"2-toifa (doimiy daromadga ega,qo'shimcha daromadtopish istagi borxonadonlar)
- 7551 tasi (21,5 %) "Iqtisodiy nochor"1-toifa (xonadonlar daromadi kam, ishsiz a'zolari bo'lgan, o'z ishini boshlashga qiziqishi katta, shuningdek daromad topishga, kasb o'rganishga harakat qilayotgan xonadonlar)
- 3251 tasi (9,3 %) "Extiyojmand" 3-toifa (nogironligi bo'lgan va kasal a'zolari bo'lgan, boquvchisini yo'qotgan hamda ijtimoiy himoyaga muhtoj xonadonlar.

Xatlov natijalariga ko'ra:

1 862 nafar fuqaroning ishlash istagi borligi,

347 nafari kasb-hunar va tadbirkorlikka o'qimoqchi ekanligi,

810 nafari tadbirkorlik bilan shug'ullanish xohishi borligi aniqlandi.

Tadbirkorlikni yo'lga qo'yish uchun fuqarolar tomonidan 1 289 ta muammo va takliflar bildirildi.

Jumladan:

- 49 tasi yer;

- 50 ta bino va inshootlar;

- 1087 tasi 539 mlrd.so'm kredit olish;

- 315tasi yo'l va kommunikasiya;

- 34 tasi boshqa masalalarni tashkil etadi.

2022 yil 20 fevral holatiga mahallalardagi 205 ta tadbirkorlar bilan hamkorlik yo'lga qo'yildi.

Bundan tashqari 16ta maxalla shuningdek asosan 5 ta og'ir mahallalarga 8 ta lider tadbirkorlar biriktirilib, amalga oshiriladigan loyihalar asosida 615 ta xonadon qamrab olinib, 945 nafar aholini ish bilan ta'minlash ko'zda tutilgan.

Bugungi kunda hokim yordamchilarining tashabbusi bilan joriy yilning yanvar oyida 301 nafar rejaga nisbatan 62.6%, fevral oyiga 456 nafar rejaga nisbatan 46% ish o'rinlari tashkil etildi.

Ma'lumotlaringiz uchun rahmat.



